




QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI 2022- YIL YANVAR-NOYABR OYLARI (DASTLABKI MA'LUMOT)




Tel.: 61-222-75-87

www.qrstat.uz


2022- yil yanvar-noyabr oylarida



Dastlabki ma‘lumotlar bo‘yicha 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi korxonalari tomonidan 15821,4 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 100,7 % ni tashkil etdi.




Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, 13734,5 mlrd. so‘m jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi esa 86,8 % ni tashkil etdi.




*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'rishining asosiy omili tog'-kon sanoati va ochiq konlarda ishlash utilizatsiya qilishda – 13,1 % ga, shlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 1,0 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – 10,9 % ga oshganidir. Shuningdek, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 3,4 % ga, pasayish kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2022-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 117,8 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ini tashkil etdi.



2022- yil yanvar-noyabr oylarida
Oʻtgan yilning tegishli davriga nisbatan % da

Ohah tosh



Tabiiy gaz




Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-noyabr	2022- yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Ohah tosh, ming t.	143,2	214,1	70,9
Tabiiy gaz, mln. kub.m.	1803,1	1220,4	-582,7

Gaz kondensati



Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-noyabr	2022- yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Gaz kondensati, ming t.	81,7	73,3	- 8,4


2022- yil yanvar- noyabr oylarida



2022- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 13734,5 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 86,8 % ini tashkil etdi.




O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,2 % ni (2021- yilning yanvar-noyabr oylarida – 1,2 %), o'rta-yuqori texnologiyali –60,7 % (62,7 %), o'rta-quyi texnologiyali – 4,8 % (4,4 %) va quyi texnologiyalisi – 34,3 % (31,7 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 61,2 % (2021- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 102,2 %), oziq-ovqat va ichimliklar ishlab chiqarishning ulushi – 16,9 % (2021- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 104,4 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 15,4 % (2021- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 99,2 %), boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 3,6 % (2021- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 116,3 %) tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da



2022- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda 263,7 ming tonna portlandsement (2021- yilning mos davriga nisbatan 10,2 % ga), 33,2 ming tonna paxta tolasi (6,5 %), 45,7 ming tonna paxta chigiti (1,0 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'ati kuzatildi. Shuningdek, 3,0 ming tonna tozalangan o'simlik yog'i (46,8 %), 1,4 ming tonna tozalangan guruch (41,9 %), 99,2 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (11,5 %), 13,3 ming tonna kalava ip (10,4 %), 3345,8 ming litr aroq (9,6 %) va ishlab chiqarilib, 2021- yilning mos davriga nisbatan pasayishi kuzatildi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-noyabr	2022- yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Aroq, ming litr 100 % li spirt	3703,0	3345,8	-357,2
O'simlik yog'i (tozalangan), t	5727,9	3048,6	- 2679,3
Paxta tolasi, tt	31155,8	33191,4	2035,6
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t.	112083,0	99151,5	- 12931,5
Polietilen, ming t.	276,7	273,1	- 3,6
Polipropilen, ming t.	78,7	76,9	-1,8


Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 62,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 113,4 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 60,7 % ni, fizik hajm indeksi 102,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 8335,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 95,8 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 15,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 3,9 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 2116,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 13,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 111,6 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 4,2 % ga kamaygan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 1971,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 3,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 99,2 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 3,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 16,9 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 495,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2021- yilning yanvar-noyabr oylari yakuniga ko'ra ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 110,1 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 1,5 % ni, fizik hajm indeksi 110,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 211,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Kiyim ishlab chiqarish sanoati

2021- yilning yanvar-noyabr oylari yakuniga ko'ra kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,9 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 83,9 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida kiyim ishlab chiqarish ulushi 1,0 % ni, fizik hajm indeksi 130,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 143,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Mebellar ishlab chiqarish

2021-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra mebel mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 119,9 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,8 % ni, fizik hajm indeksi 104,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 107,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish




2021-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 142,3 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5 % ni, fizik hajm indeksi 72,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 69,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sanoatining chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 107,6 %.


Shuningdek, 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5 % ni, fizik hajm indeksi 110,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 70,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Elektr, gaz bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1860,7 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 11,8 % ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-noyabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta‘minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 96,6 % ni tashkil etdi.




Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish




Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 108,4 mlrd. so'mni (jami sanoat mahsulotlarining hajmining 0,7 % ini) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish




O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 10,5 % va shahar xo'jaliging qayta foydalanishga yaroqsiz, xavfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar 9,9 % ga oshganligi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2799,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-noyabr oylari mos davriga nisbatan 104,2 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 17,7 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari




Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'ati respublika o'sish sur'ati (104,2 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Shumanay (143,6 %), Ellikqal'a (131,7 %), Mo'ynoq (130,2 %), Amudaryo (124,4 %), Bo'zatov (116,6 %), Xo'jayli (115,0 %), Chimboy (112,4 %), Nukus (111,4 %), Beruniy (106,5 %) hamda Qorao'zak (105,3 %) tumanlarida qayd etildi.

Shu bilan birga, 2021- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati ko'rsatkich Nukus shahri (86,4 %), Taxtako'pir (84,7 %), Qo'ng'iro't (92,1 %) tumanlarida qayd etildi.

Nooziq-ovqat mahsulotlar


Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 65,3 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 34,7 % ni tashkil etdi. 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida iste'mol tovarlarining umumiy hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 58,8 %, nooziq-ovqat mahsulotlar ulushi 41,2 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, 2021- yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlarining o'sish sur'ati 110,2 %, nooziq-ovqat mahsulotlar o'sish sur'ati 94,7 % ni tashkil etdi.




Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to'g'ri kelib 20,4 % ni, shuningdek, Taxiatosh tumani 12,2 % ni, Ellikqal'a tumani 11,5 % ni, To'rtko'l 8,8 % ni, Amudaryo tumani 7,2 % ni, Beruniy tumani 6,9 % ni, Xo'jayli tumani 6,8 % ni va Chimboy tumani 5,7 % ni tashkil etdi.




■ o'sish sur'ati
■ mlrd. so'm



Qoraqalpog'iston Respublikasi






Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Ellikqal'a tumaniga to'g'ri kelib 22,7 % ni, shuningdek, Nukus shahri 15,1 % ni, To'rtko'l tumani 9,6 % ni, Xo'jayli tumani 8,9 % ni, Amudaryo tumani 6,9 % ni hamda Beruniy tumani 6,0 % ni tashkil etdi.






 o'sish sur'ati
 mlrd. so'm



Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati



Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to'g'ri kelib, 23,2 %, shuningdek, Taxiatoş tumani 16,8 % ni, To'rtko'l 8,3 % ni, Amudaryo tumani 7,5 % ni Beruniy tumani 7,3 % ni hamda Xo'jayli tumani 5,7 % ni tashkil etdi.



o'sish sur'ati
mlrd. so'm

Qoraqalpog'iston Respublikasi shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari




Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Nukus shahri (Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmining 54,9 %), Taxiatosh (12,2 %), Qo'ng'iro't (5,1 %), To'rtko'l (3,9 %), Amudaryo (3,5 %) va Beruniy (2,9 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.



o'sish sur'ati
mlrd. so'm


Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Nukus shahrida (26241,3 ming so'm) va Taxiatoş tumanida (25455,8 ming so'm) o'rtacha Respublika darajasi ko'rsatkichidan (8074,0) ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.






Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Respublika bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1428,7 ming so'm bo'lgani holda, Taxiatosh tumanida 4514,7 ming so'mni, Taxtako'pir tumanida 2354,7 ming so'mni, Ellikqal'a tumanida 1939,9 ming so'mni, Nukus shahrida 1724,9 ming so'mni va Xo'jayli tumanida 1503,5 ming so'mni tashkil etdi.



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3126,3 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 19,8 % ni tashkil etdi.





Qoraqalpog'iston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari



Bugungi kunda respublikada 3567 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 2005 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 56,3 %) Nukus shahriga 719 tasi (20,2 %), To'rtko'l 368 tasi (10,3 %), Amudaryo 311 tasi (8,7 %), Beruniy 309 tasi (8,7 %) Ellikqal'a 298 tasi (8,4 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda

Jami yangi tashkil etilgan



Jami faoliyat yuritayotgan



 yangi tashkil etilgan
 faoliyat yuritayotgan